

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi
2024-yil 3-chorak uchun
HISOBOTI**

I. Umumiy ma’lumot

2024-yilning 3-choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan vazirlikka umumiy hisobda **31** ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ular hududlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega: Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 1 ta; Jizzax viloyati – 2 ta; Qashqadaryo viloyati – 2 ta; Navoiy viloyati – 1 ta; Namangan viloyati – 1 ta; Samarqand viloyati – 2 ta; Surxondaryo viloyati – 4 ta; Toshkent viloyati – 3 ta; Toshkent shahri – 9 ta; Farg‘ona viloyati – 4 ta; Xorazm viloyati – 1 ta; 1 ta murojaat anonim bo‘lib, qaysi hududdan kelganligi ma’lum emas.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Agentlikka yo‘llangan yuqoridagi murojaatlarning 16 tasi bo‘yicha murojaat muallifiga tegishli tushuntirishlar berildi va 4 ta murojaatlar ijobiy hal etildi. Shuningdek, murojaatlarning 3 tasi vazirlik vakolatiga kirmaganligi sababli, tegishliligi bo‘yicha boshqa davlat idoralariga yo‘llangan. 4 ta murojaat anonim va takroriy bo‘lganligi uchun ko‘rmasdan qoldirilgan. Qolgan 4 ta murojaat o‘rganish jarayonida.

III. Minimallashtirish choralari

Kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish natijasida keltirilgan vajlar o‘z tasdig‘ini topmaganligi ma’lum bo‘lgan.